



**O‘ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI
RIVOJLANTIRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

26-aprel 2024-yil

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА
РАЗВИТИЯ «ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКИ» В УЗБЕКИСТАНЕ**

26 апреля 2024 года

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
PERSPECTIVES AND REGIONAL FEATURES OF THE
EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE
DEVELOPMENT OF THE "GREEN ECONOMY" IN
UZBEKISTAN**

April 26, 2024

Buxoro

2. Yashil iqtisodiyot darslik /A.B.Vaxabov, III.X.Xajibaqiev – Toshkent.: “Universitet”, 2020. - 262 b.
3. Перспективы энергетических технологий. Сценарии и стратегии до 2050 г. А. Кокорина Т. Муратовой. 20
4. Вахтиyorovich D. Q. The Opportunity and Basic Principles of Ecotourism. – 2023.
5. Dilmonov K. B. Tourism-the effective industry of the country"s economy //Конференциум АСОУ: сборник научных трудов и материалов научно-практических конференций. – Государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Московской области Академия социального управления, 2018. – №. 1. – С. 99-102.
6. Dilmonov K. CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF ESTABLISHMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN //" Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
7. Dilmonov K. B. Opportunities for development of ecotourism in Uzbekistan //Приоритетные направления развития современной науки молодых учёных аграриев. – 2016. – С. 542-544.
8. Дилмонов К. Б. Некоторые проблемы развития переработки плодоовощной продукции в Республики Узбекистан //Приоритетные направления развития современной науки молодых учёных аграриев. – 2016. – С. 753-756.

Kadirova Maral Matyakubovna

BuxDU “Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası PhD o‘qituvchisi.

Ozodbek Ilhomov. BuxDU talabasi.

E-mail: maral matyakubovna@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA AGROBIZNESNI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida agrobiznes subyektlari faoliyatini zamonaviy innovatsion agrotexnologiyalarni qo‘llash asosida tashkil qilish va aholini toza-ekologik oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Aynan shu masalalarni hal etilishida agrobiznes subyektlarining innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyallashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qaroriga muvofiq, qishloq va suv xo‘jaligida raqamli va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17- dekabrda "O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 794-sonli qarorida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish;
- agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan, davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish;
- qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish;
- suv omborlari va irrigatsiya tizimlarida suv resurslaridan foydalanishni "onlayn" rejimida nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste‘moli hisobini yuritish hamda ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;
- biznes-startap loyihalarni amalga oshirish va innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish uchun agrar sohadagi tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish.

Yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarni hal etish maqsadida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya etish natijasida tarmoqni yanada yuqori sur‘atlar bilan rivojlantirishni ta‘minlash zarur. Buning uchun qishloq xo‘jaligidagi xususiy tarmoqni ustuvor darajada o‘rnatishni ta‘minlashga erishish lozim. Shuning bilan birgalikda "... kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko‘lamini kengaytirish" agrar islohotining ustuvor yo‘nalishi deb belgilangan. Ularni ijobiy hal etilishini ta‘minlashga qaratilgan aniq chora tadbirlar ham belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Agrobiznes bu - bozor iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va uning mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, sotish, saqlash, taqsimlash bilan bog‘liq sohasi. Bu atamani birinchi 1957-yilda

amerikalik tadqiqodchilar J.X. Devis, G.A. Goldberglar qoʻllagan. Ularning fikriga koʻra agrobiznes – bu fermer xoʻjaliklariga etkazib berish uchun zarur boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarqatish boʻyicha operatsiyalar majmui, shuningdek qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish bilan shugʻullanadigan tarmoqlar majmui [3]. .

Qishloq xoʻjaligi sohasidagi tadbirkorlik faoliyati agrobiznes deyiladi. Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xoʻjaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan shugʻullanuvchi biznes turlari kiritiladi. Bu qishloq xoʻjaligiga texnikaviy taʼmirlash, xizmat koʻrsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va isteʼmolchilarga yetkazib berish bilan bogʻliq boʻlgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha boʻgʻinlarini qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Agrobiznesni rivojlantirish, yaʼni agrosanoatni rivojlantirish, bu qishloq xoʻjaligining barcha jarayonlarini: (qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishdan boshlab ularni sotishga qadar) tizimli va samarali shaklda rivojlantirish jarayoni. Bu jarayonlarda kichik va oʻrta bizneslarning yanada kuchaytirilishi texnologiyalar va innovatsiyalar qoʻllanishi sanoatning islohotlari va xizmatlarining sifati oshirilishi kabi koʻrsatkichlar koʻrsatiladi.

Agrobiznesni rivojlantirish yoʻllari uchun quyidagi faoliyatlarni kiritish mumkin:

1. Modern texnologiyalarni qoʻllash: Yengil texnologiyalar va innovatsiyalar qoʻllanishi orqali mahsulotning sifati va daromadning oshirilishi.
2. Infrastrukturaning rivojlantirish: Transport, suv resurlari, elektr energiyasi va boshqa infrastruktura tarmogʻini rivojlantirish.
3. Xizmatlarni rivojlantirish: Agro-kreditlash, marketing xizmatlari, sertifikatlash va standartlashtirish xizmatlarni takomillashtirilishi.
4. Sanoatning diversifikatsiyasi: Agro-sanoatda mahsulotlar portfeli diversifikatsiyasi orqali riskni kamaytirish va daromadni oshirish.
5. Kadrlar tayyorlash: Texnologiyalar va inovatsiyalar boʻyicha xodimlarni tayyorlash va rivojlantirish.


Agrobiznesni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligining ahamiyatini oshiradi va xaridorlar uchun sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining oʻsishiga va uning mustahkamligida juda muhim oʻrin egallaydi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi - isteʼmol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xoʻjalik mahsulotlari, sanoatni esa xom - ashyo bilan uzluksiz taʼminlash orqali foyda koʻrishdan iborat. Agrobiznesning asosiy shakli va boʻgʻini fermer va dehqon xoʻjaliklaridir. Chunki bu xoʻjaliklar bevosita qishloq xoʻjalik mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

Tahlil va natijalar

Endi esa agrobiznesning biz uchun qanchalik zarurligi va aynan bizning mamlakatdagi oʻrni va holatini agrobiznesdagi natijalarini koʻrib chiqsak. 2020-yil yanvar oyi holatiga Oʻzbekistonda fermer xoʻjaliklari soni 92,6 mingtani, qishloq xoʻjaligi korxonalari soni 27,6 mingtani, dehqon (shaxsiy tomorqa) xoʻjaliklari soni 5 mln dan ortigʻini tashkil etmoqda. 2023 yil yanvar-dekabr oyida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari) soni –9 397 birlikni tashkil etgan boʻlsa bu koʻrsatkich, 2024 yil 1 yanvar holatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari) son 37 772 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlarda – 34 831 birlikni, oʻrmon xoʻjaligida – 239 birlikni hamda baliqchilik xoʻjaligida – 2 702 birlikni tashkil etdi.





1-rasm. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 3 foizi qishloq xo'jaligi korxonalarida, 26,9 foizi esa fermer xo'jaliklari hissaga to'g'ri keladi. Eng katta ulush esa, dehqon (shaxsiy tomorqa) xo'jaliklariga tegishli 70,1 foiz.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisoboti davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida, va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi. Fermer va dehqon xo'jaliklari o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanishlari ham mumkin. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish lozimki, aynan yuqorida aytib o'tilgan raqamlarni agrosanoatda yetakchi o'rinlarda turgan davlatlar bilan taqqoslasak. Misol uchun, O'zbekistonga qaraganda 10 barobar kichik davlat Niderlandiya agrosanoatini ko'rib chiqaylik. O'zi juda kichkina davlat bo'lishiga qaramay hozirgi kunda agrosanoatda jahonda yetakchi o'rinlarda turadi. Mamlakat yer maydoni 41,543 km kv ni tashkil qiladi. Shunga qaramay bu davlatda 135 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi korxonalarini va bu korxonalar zamonaviy texnika va raqamli innovatsion texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlaridan keng foydalanadi. Mamlakatning 65% i qismi qishloq xo'jaligiga ajratilgan ya'ni 32% yaylovlar, 27% ekin maydonlari, 9% o'rmonlardan iborat. Niderlandiya qayta ishlash sanoatiga va qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mamlakatdir. Kerakli suv va oziq moddalar miqdorini aniqlashga yo'naltirilgan texnologik yondashuv natijasida bu yerdagi fermerlar har bir gektar maydondan boshqa davlatlarga nisbatan 2,3 barobarga ko'proq mahsulot yetishtira oladi. Niderlandiyani ko'pgina qismini issiqxonalar ham tashkil etadi, ushbu issiqxonalar yuqori texnologik yechimlar bilan jihozlangan bo'lib ular energiya samaradorligi va suvning minimal miqdoridan foydalangan holda juda yaxshi natijalarga erishadi. Misol uchun bir kg pamidor yetishtirish uchun 215 litr suv sarflansa, bu davlatda 10 litr suv sarflanadi va bir kv metr joydan 14-16 kg pamidor yetishtirishsa bu yerda 34-36 kg pamidor yetishtiriladi. Shu sababli mamlakat yevropadan eksport qilinadigan sabzavotlarning to'rtidan bir qismini yekazib beradi va yillik qishloq xo'jaligi ta'minoti 22% oshadi. Niderlandiya don va urug' ishlab chiqarish bilan ham mashhur va u har yili 1,5-2 milliardlik eksport qiladi. So'nggi yillarda Niderlandiya markaziy statistika buyrosining ma'lumotiga ko'ra, qishloq xo'jaligi eksporti 3,6 milliard yevroga o'sib, 85 milliardga yetgan.

Dunyo aholisi oshishi sabab 2050- yilda hozirgidan ko'ra 70% ko'proq oziq-ovqat yetishtirishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga AQShda yildan yilga kamroq yoshlar fermerlikni tanlayapti. Hozir fermerlarning o'rtacha yoshi 60 da. Iqlim o'zgarishi ham yetishtirilayotgan hosilni xavf ostiga qo'yimoqda. Bu muammolarni hal qilishda sun'iy intellekt (SI) fermerlarga yordam bera olishi mumkin. Amerikalik fermerlar sun'iy intellektni o'zlashtirishda va uni ish sharoitiga qo'llashda jadallik bilan davom etyapti. Texnologiyalar qanchalik murakkab bo'lmasin, ular shunchalik zarur hamdir. SI dan foydalanish ishlatiladigan resurslarni kamaytirib, hosildorlikni oshirishi kerak. Bu hozir ilgari surilayotgan "aniq qishloq xo'jaligi" strategiyasiga mos keladi. Buning uchun fermerlar yangi texnologiyalardan foydalanib, vaziyatga xuddi jarrohlardak yondashishi kerak. Masalan, dronlar dalaning suv va o'g'itlanganlik darajasini

aniqlab bera oladi. SI va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq tarzda hosildorlikning yaxshilanishini ko‘rish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar begona o‘tlarni tozalashi, gerbitsidlarni faqatgina zarur o‘simlik tagiga dona-dona tarzida quyishi mumkin, va bunday texnologiyalar fermerlarning gerbitsidlardan foydalanishini 66 foizga kamaytirgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali hosildorlik oshsa, dehqonlar ko‘radigan foyda ham oshadi, iste‘molchilar uchun esa narxlar arzonroq bo‘ladi, oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimi yaxshilanadi, Buning natijasida agrobiznes sohasi yanada rivojlanib, ishchi kuchidan samarali foydalanishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘ychiyev A.G’. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish. Monografiya, “Fan” nashriyoti.-Toshkent 2020- 224 b
2. A.S.Soliyev “Iqtisodiyot geografiya asoslari” ma’ruza matni.
3. Вихров М.С. Содержание агробизнеса и его роль в экономической систем <https://core.ac.uk/download/pdf/214880883.pdf>
4. Турובה Хулкар Рустамовна. Агробизнесни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. “*Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*” *ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil.*
5. Kadirova, Maral Matyakubovna. "POTENTIALS OF QUEST TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'ECONOMIC SKILLS." *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* 2.1.5 Pedagogical sciences (2022).
6. Таджиева, С. У., and М. М. Кодирова. "Основные направления развития программы локализации в Узбекистане." *Современные тенденции развития науки и производства*. 2016.
7. Kadirova M.M. Potentials of quest technology in the development of students' economic skills. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences (2022) <http://berlinstudies.de/> 372 pp. 372-378.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

Г.К.Наринбоева

Ташкентский государственный аграрный университет, Узбекистан

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

В условиях цифровой экономики сельское хозяйство подчиняется основным экономическим законам, характерным для любых экономических систем и для любого этапа развития производительных сил и производственных отношений. В сельском хозяйстве следует учитывать особенности, обусловленные технологией сельскохозяйственного производства, размещением трудовых, производственных и земельных ресурсов.

В Узбекистане сельское хозяйство как одна из наиболее крупных отраслей является одним из приоритетных направлений экономики. Узбекистан обладает благоприятными природно-климатическими условиями для производства различных сельскохозяйственных культур. В настоящее время в республике более 100 тысячи фермерские хозяйства ведут свою деятельность.

Наиболее наглядно представление об этих особенностях можно составить из характеристики основных макроэкономических понятий и их проявления в условиях сельского хозяйства.

В сельском хозяйстве решающее значение имеет воспроизводство природно-биологической системы - земли, растений и животных. В этой сфере общественно-производственных отношений наиболее важным является обеспечение единства техники, биологии, экономики и экологии.

Принято различать два вида воспроизводства - простое и расширенное.

Простое воспроизводство - размеры произведенного продукта, а также его качество в каждом последующем цикле остаются неизменными. Это в свою очередь обуславливает неизменность факторов производства. Весь прибавочный продукт, если он производится, используется на цели потребления производителя. В чистом виде простое воспроизводство может носить лишь теоретический характер, особенно в области сельского хозяйства. Производство сельскохозяйственной продукции связано с возобновлением плодородия земель и подвержено существенному влиянию климатических условий. В этой ситуации обеспечение точного соответствия результатов производства по окончании каждого воспроизводственного цикла становится невозможным.